



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Ҳуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126



**Norqulov Husniddin Do'sbekovich,**

*"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*



**Jumanov Sherzod Salayevich,**

*SamDCHTI doktoranti.*

## FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI TOMONIDAN JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

**Annotatsiya.** Maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishning dolzarb masalalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratini ta'minlash vositalari va ularni takomillashtirish masalalari o'rinni olgan. Maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini tashkil etishning bir nechta shakllari, ya'ni davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar; davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etishi; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvchi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; jamoatchilik fikrini o'rganish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdon shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish kabilalar tadqiq etilib, bu boradagi ishlarni samarali amalga oshirish yuzasidan amaliy takliflar va uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Аннотация.** В статье освещены актуальные вопросы разработки и совершенствования механизмов установления действенного общественного контроля за деятельностью органов самоуправления граждан, средств обеспечения общественного контроля за деятельностью

*органов самоуправления граждан и их совершенствования. В статье рассматриваются несколько форм организации общественного контроля органами самоуправления граждан, т.е. обращения и запросы в государственные органы; участие в открытых заседаниях коллегий государственных органов; общественное обсуждение; общественные слушания; общественный мониторинг; общественная экспертиза; исследование общественного мнения; органами самоуправления граждан изучены отчеты и информацию государственных служащих, дали практические предложения и методические рекомендации для эффективного осуществления работы в данной сфере.*

**Annotation.** *The article covers topical issues of developing and improving mechanisms for establishing effective public control over the activities of citizens' self-government bodies and their improvement. The article discusses several forms of organization of public control by citizens' self-government bodies, i.e. appeals and inquiries to government agencies; participation in open board meetings of government agencies; public discussion; public hearing; public monitoring; public expertise; public opinion research; citizens' self-government bodies have studied the reports and information of government officials, and provided practical suggestions and methodological recommendations for the effective implementation of work in this area.*

**Kalit so‘zlar:** fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik nazorati, shakllari, murojaatlar va so‘rovlari, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvni, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish, davlat organlari, mansabdar shaxslari, qonunlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar.

**Ключевые слова:** органы самоуправления граждан, общественный контроль, формы, обращения и запросы, общественное обсуждение, общественные слушания, общественный мониторинг, общественная экспертиза, изучение общественного мнения, государственные органы, должностные лица, законы, права и свободы граждан, законные интересы.

**Keywords:** citizens self-government bodies, public oversight, forms, appeals and inquiries, public discussion, public hearings, public monitoring, public expertise, public opinion research, government bodies, officials, laws, citizens' rights and freedoms, legal interests.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi, o‘z navbatida, qonun hujjatlarining ustuvorligini ta’minlashda, ularning amaliyatga to‘liq tatlifi etilishida, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda, ular tomonidan turli xil huquqbazarlik sodir etilishining oldini olishda, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirishda, tadbirkorlikni rivojlantirishda, sog‘lom raqobat muhitini yaratishda, eng muhim, fuqarolarning farovon turmush tarzini kuchaytirish tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilikda jamoatchilik nazoratining asosiy parametrlari o‘z aksini topgan bo‘lib, bu, birinchi navbatda, fuqarolik jamiyati institutlari

va alohida fuqarolarning faoliyatidir. U davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari harakatlarining qonun hujjatlari normalariga muvofiqligini aniqlashga, shuningdek, aniqlangan qonunga zid harakatlarni tuzatishga qaratilgan. Bunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tuzatish funksiyasi vakolatli davlat organlariga yoki jamoatchilik fikriga murojaat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi” begilab qo‘yilgan.

Ushbu Qonunga muvofiq, “Jamoatchilik nazorati fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi holatini o‘rganish;
- tegishli choralar ko‘rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish;
- davlat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha so‘rovlar yuborish.

Jamoatchilik nazorati qonunchilikka muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko‘maklashishi va qonunchilikka muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishi shart” [1].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati ta’sirchanligini oshirishda ushbu organ xodimlarining O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunida mustahkamlab qo‘yilgan huquqiy meyorlarni chuqr bilishi va amaliyotda qo‘llay olish malakasiga egaligi bu borada tashkil etilayotgan ishlar samaradorligiga erishilishini ta’minlaydi.

Ushbu Qonunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllarining huquqiy asoslari qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan.

#### **Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat [2]:**

- davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;

***O‘zbekiston  
Respublikasining  
yangi tahrirdagi  
“Fuqarolarning  
o‘zini o‘zi  
boshqarish  
organlari  
to‘g‘risida”gi  
Qonunining 16-  
moddasida  
“Fuqarolarning  
o‘zini o‘zi  
boshqarish  
organlari  
tomonidan  
jamoatchilik  
nazoratining  
amalga oshirilishi”  
begilab qo‘yilgan.***

- jamoatchilik eshitivi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish;
- Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

### **Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar [3].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Jamoatchilik nazorati subyektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga so‘rovlar yuborishga haqli. Jamoatchilik nazorati subyektlarining murojaatlari va so‘rovlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Jamoatchilik nazorati subyektlarining axborot olishga bo‘lgan huquqi, agar mazkur axborot shaxsga doir ma’lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa, cheklanishi mumkin”.

So‘rov – bu axborotdan foydalanuvchining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida axborot taqdim etish haqida ushbu organlarga yoki ularning mansabdar shaxslariga yo‘llanadigan og‘zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan, elektron hujjat shaklidagi) talabidir.

**“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasida so‘rovga qo‘yiladigan talablar belgilangan.** Ular quyidagilar:

➤ jismoniy shaxsning so‘rovida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi, so‘rovida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan, so‘rovning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi;

➤ yozma so‘rovlar axborotdan foydalanuvchining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. So‘rovni shaxsiy imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, u qo‘sishmcha ravishda tuzuvchining ham familiyasi, ismi, otasining ismi qo‘yilgan holda uning imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi;

➤ axborotdan foydalanuvchini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilmagan so‘rov anonim hisoblanadi va ko‘rib chiqilmaydi;

**Jamoatchilik  
nazorati  
subyektlarining  
axborot olishga  
bo‘lgan huquqi,  
agar mazkur  
axborot shaxsga  
doir ma’lumotlar  
yoxud davlat  
sirlarini yoki  
qonun bilan  
qo‘riqlanadigan  
boshqa sirni  
tashkil etuvchi  
ma’lumotlar  
jumlasiga kiritilgan  
bo‘lsa, cheklanishi  
mumkin”.**

➤ so‘rov unda qo‘yilgan masalalar yuzasidan axborot taqdim etish vakolatiga kiradigan davlat hokimiysi va boshqaruvi organiga yoki mansabdor shaxsga yuborilishi;

➤ belgilangan tartibda yuborilgan so‘rov ko‘rib chiqilishi shart [4].

**Davlat organlariga so‘rovlар yuborishni quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq:**

1. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasi aniqlanadi.

2. Jamoatchilik muhokamasi o‘tkaziladigan soha bo‘yicha yetarlicha tushuncha va tajribaga ega fuqarolar orasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh shakllantiriladi.

3. Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh tomonidan amalga oshirilgan ishlarning holati o‘rganilib, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlanadi.

4. O‘rganishlar davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. Tegishli tashkilotlarga o‘rganishlar jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni hal etishga alohida e’tibor qaratish tavsiya etilgan so‘rov yuboriladi.

**Davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish [5].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Jamoatchilik nazorati subyektlari qonun hujjalarda belgilangan tartibda davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish huquqiga ega. Davlat organlari o‘zining ochiq hay’at majlislarida jamoatchilik nazorati subyektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi”.

**Jamoatchilik muhokamasi [6].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjalarni, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihibarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.

Jamoatchilik muhokamasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ommaviy axborot vositalari orqali o‘tkazishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasi turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan, muhokama etilayotgan masala o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan yoki daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasi ommaviy va ochiq o‘tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasining ishtirokchilari jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan masalalar yuzasidan o‘z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy axborot vositalari orqali

*O‘zbekiston  
Respublikasining  
“Jamoatchilik  
nazorati  
to‘g‘risida”gi  
Qonuniga ko‘ra,  
“Jamoatchilik  
nazorati  
subyektlari qonun  
hujjalarda  
belgilangan  
tartibda davlat  
organlarining  
ochiq hay’at  
majlislarida  
ishtirok etish  
huquqiga ega.*

hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasining tashkilotchisi jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalar, muhokamani o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik muhokamasining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi.

Jamoatchilik muhokamasi ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning loyihalari, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan boshqa hujjat va materialarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha jamoatchilik muhokamasi ularga o'zgarishlar kiritish yoki ularni yangi tahrirda qabul qilish, zarur bo'lgan hollarda jamoatchilik fikri hisobga olinishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Mamlakatimizda qabul qilinadigan qonun loyihiilarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish odat tusiga kirgan. Milliy ong va milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishi natijasida qonunlardan tashqari ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan boshqa hodisalarini muhokama qilish ham ijtimoiy amaliyotda mustahkam o'rinnegallay boshladi.

Jamoatchilik muhokamasi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lib, davlat boshqaruvida siyosiy qadriyatlarni, ya'ni fuqarolarning siyosatni ishlab chiqishdagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Davlat boshqaruvi uchun siyosiy qadriyatlardan tashqari, huquqiy qadriyatlar ham xos bo'lib, ular siyosiy qarorlar qabul qilish chegaralarini belgilab beradi, alohida fuqarolarning va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qiladi. Qarorlar qabul qilishda siyosiy va huquqiy qadriyatlardan tashqari boshqaruq qadriyatlari ham mavjud bo'lib, ular qonunlarni amalga tatbiq qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Huquqiy qadriyatlar jumlasiga huquqning ustuvorligi, tenglik kabilalar kirsa, boshqaruq qadriyatlariga boshqaruq organlari faoliyatining samaradorligi, optimalligi kabilarni kiritish mumkin.

Jamoatchilik muhokamasini o'tkazishda ishtirokchilar oldindan ro'yxatdan o'tishlari, xulq-atvor qoidalariga hamda jamoatchilik muhokamasini o'tkazish reglamentiga amal qilishlari shart.

#### **Jamoatchilik muhokamasini o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:**

1. Jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladigan loyihiaga o'zgarishlar kiritish yoki yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati mavjud me'yoriy-huquqiy hujjat bo'yicha aniqlab olinadi.

**Mamlakatimizda  
qabul qilinadigan  
qonun loyihiilarini  
jamoatchilik  
muhokamasidan  
o'tkazish odat  
tusiga kirgan.  
Milliy ong va milliy  
ma'naviyatning  
tiklanishi va  
rivojlanishi  
natijasida  
qonunlardan  
tashqari ijtimoiy  
ahamiyatga molik  
bo'lgan boshqa  
hodisalarini  
muhokama qilish  
ham ijtimoiy  
amaliyotda  
mustahkam o'rinn  
egallay boshladi.**

2. Jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladigan loyihaga o'zgarishlar kiritish yoki yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati mavjud me'yoriy-huquqiy hujjat bo'yicha yetarlicha tushuncha va tajribaga ega fuqarolar orasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh shakllantiriladi.
3. Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh tomonidan jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladigan loyihaga o'zgarishlar kiritish yoki yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati mavjud me'yoriy-huquqiy hujjat bo'yicha o'rganilib, kamchiliklar aniqlanadi.
4. O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tegishli davlat hokimiyati organiga taqdim etiladi.

#### **Jamoatchilik eshituvi [7].**

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, "Davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlari daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish jamoatchilik eshituvidir.

Jamoatchilik eshituvini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik eshituvi turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan, muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik eshituvi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik eshituvining ishtirokchilari jamoatchilik eshituviga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqlidir.

**Jamoatchilik eshituvi bu** – davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlari daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish.

Mazkur shakl ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan u yoki bu muammoni hal qilishda turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini o'zaro kelishtirishga xizmat qiladi. **Jamoatchilik eshituvi quyidagi maqsadlarni ko'zlab o'tkaziladi:**

- ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammolarni aniqlash va muhokama qilish;
- mazkur muammoni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan tomonlarni aniqlash;

**Jamoatchilik  
eshituvini  
nodavlat notijorat  
tashkilotlari,  
fuqarolarning  
o'zini o'zi  
boshqarish  
organlari va  
ommaviy axborot  
vositalari o'tkazishi  
mumkin.**

- manfaatdor tomonlarning mazkur muammo bo‘yicha mavqeyini qayd qilish va barcha tomonlar uchun maqbul bo‘ladigan qaror variantini ishlab chiqish.

Jamoatchilik eshituvchi ishtirok etayotgan barcha tomonlarning o‘z fikr va dalillarini bayon qilishini ko‘zda tutadi. Bunda ular muhokama qilinayotgan masalaga aloqador bo‘lgan ichki ishlar organlarida yuritiladigan va mayjud hujjatlar bilan tanishib chiqadi.

#### **Jamoatchilik eshituvining ishtirokchilari quyidagilar bo‘lishi mumkin:**

- mazkur muammoni kun tartibiga qo‘yishda tashabbus ko‘rsatgan tomon;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining xodimlari;
- muhokama qilinayotgan masaladan manfaatdor bo‘lgan jamoatchilik, shu jumladan, jamoat tashkilotlarining vakillari.

Jamoatchilik eshituvini tashkil etish va o‘tkazishga mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari va birlashmalarining vakillari jalb etilishi lozim.

Jamoatchilik eshituvining obyekti ichki ishlar organlari tomonidan jamoatchilik manfaatlari, jamiyatda vujudga kelgan muammoni hal qilish bo‘yicha tayyorlangan loyiha bo‘lishi mumkin. Mabodo, loyiha tarkibida yopiq ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, loyiha mualliflari jamoat eshituvni uchun alohida ma’ruza tayyorlashadi. Shu bilan birga, muammoni hal qilish bo‘yicha tayyorlangan hujjatning qisqacha mazmuni ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan sodda tilda tayyorlangan bo‘lishi zarur.

#### **Jamoatchilik eshituvchi yakunlari bo‘yicha tashkilotchi quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:**

- qaror loyihasi bo‘yicha tayyorlangan hujjatga tinglov jarayonida bildirilgan taklif va mulohazalar asosida tegishli o‘zgarishlar kiritish;
- jamoatchilik eshituvchi natijalarini hujjatlashtirish.

#### **Jamoat eshituvining asosiy hujjatlari quyidagilardan iborat:**

- muhokama qilinayotgan loyiha, berilgan savollar hamda takliflar, ularga berilgan javoblar;
- jamoatchilik eshituvining bayonomasi;
- tomonlarning kelishmovchiligi qayd etilgan yakuniy hujjat;
- loyiha eshituv natijasida kiritilgan o‘zgarishlar ro‘yxati.

Jamoat eshituvining yakunlovchi hujjatini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish tavsiya etiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq, fuqarolar yig‘inlari faoliyati sohasiga kiruvchi **quyidagi** masalalarga aloqador masalalar bo‘yicha hisobotlar tinglanadi:

**Jamoatchilik  
eshituvini tashkil  
etish va o‘tkazishga  
mahalliy o‘zini  
o‘zi boshqarish  
organlari, mahalliy  
davlat hokimiyati  
organlari, jamoat  
tashkilotlari va  
birlashmalarining  
vakillari jalb  
etilishi lozim.**

- ma'muriy-hududiy birliklar va mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish;
- tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va sanitariya holatini yaxshilash;
- aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj, kambag'al qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash;
- fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda ishtirot etish;
- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berish;
- kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan communal xizmatlar sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlarini, shu jumladan, sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa subyektlarni tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish va boshqa masalalar.

**Kelib tushgan  
hisobot fuqarolar  
yig'ini raisiga  
topshiriladi.  
Fuqarolar yig'ini  
raisi hisobotni  
dastlabki tarzda  
ko'rib chiqish va  
fuqarolar yig'ini  
qarori loyihasini  
tayyorlash  
uchun fuqarolar  
yig'inining Ijtimoiy  
qo'llab-quvvatlash  
va jamoatchilik  
nazorati bo'yicha  
komissiyasiga  
topshiradi.**

Kelib tushgan hisobot fuqarolar yig'ini raisiga topshiriladi. Fuqarolar yig'ini raisi hisobotni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va fuqarolar yig'ini qarori loyihasini tayyorlash uchun fuqarolar yig'inining Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiyasiga topshiradi.

Fuqarolar yig'inining Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiyasi:

- ✓ hisobotni ko'rib chiqish bilan bog'liq zarur materiallarni tayyorlashni tashkil etadi;
- ✓ fuqarolar yig'ini komissiyasi ishida qatnashish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar ilmiy muassasalar vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, jamoatchilik va xo'jalik yurituvchi subyektlar vakillarini, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif qilishi mumkin;
- ✓ hisobotni eshitish uchun vakillar yig'ilishini chaqirish haqida va unda ko'rildigan masalalar bo'yicha kun tartibi loyihasi yuzasidan fuqarolar yig'ini Kengashiga taklif tayyorlaydi;
- ✓ hisobotni eshitish yakunlari bo'yicha qabul qilingan fuqarolar yig'ini qarorining ijro etilishi natijalari bo'yicha kelib tushayotgan axborotlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi, shuningdek, qaror ijrosini nazorat qiladi.

Hisobotni eshitish haqidagi masala bo'yicha fuqarolar yig'ini qarori loyihasi fuqarolar yig'ini Kengashi devoni tomonidan fuqarolar tanishishi

uchun qulay joyga joylashtiriladi, har bir fuqaro u bilan tanishib, o‘z takliflarini berishi mumkin bo‘ladi.

Fuqarolar yig‘inida hisobotni eshitish yakunlari bo‘yicha qabul qilingan vakillar yig‘ilishining qarori fuqarolar yig‘inining Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo‘yicha komissiyasi tomonidan tayyorlanadi va fuqarolar yig‘ini raisi va komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi hamda tegishli fuqarolar yig‘ini muhri bilan tasdiqlanadi va nusxalari qaror qabul qilingan kundan boshlab, o‘n **kun ichida** tegishli tashkilotlarga yuboriladi.

Fuqarolar yig‘inlarida eshitilgan hisobotlar to‘g‘risidagi bayonnomalarning bir nusxasi mos ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar yoki Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi.

Ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadi, fuqarolar yig‘inlarining murojaatlari ko‘rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Yana bir nusxasi tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga yuboriladi.

### **Jamoatchilik monitoringi [8].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish jamoatchilik monitoringidir. Jamoatchilik monitoringini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa subyektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘tkazishi mumkin. Jamoatchilik monitoringi ommaviy va ochiq o‘tkaziladi. Jamoatchilik monitoringi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik monitoringining tashkilotchisi jamoatchilik monitoringining obyekti, uni o‘tkazish muddati va tartibi to‘g‘risidagi axborotni oldindan e’lon qiladi”.

“Monitoring” tushunchasi muayyan obyektlarning holati to‘g‘risida maxsus tashkil etilgan tizimli kuzatishni anglatadi.

**Jamoatchilik monitoringi** davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatishdir.

Jamoatchilik monitoringi davlat hokimiyati organlari faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos yoki mos emasligini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi.

**Jamoatchilik monitoringi quyidagi tamoyillarga asoslanib** o‘tkaziladi:

**Fuqarolar  
yig‘inlarida  
eshitilgan  
hisobotlar  
to‘g‘risidagi  
bayonnomalarning  
bir nusxasi  
mos ravishda  
Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi  
Vazirlar Kengashi,  
viloyatlar yoki  
Toshkent shahar  
hokimliklariga  
yuboriladi.**

- tizimlilik va xolislik;
- qonuniylik va ochiqlik;
- olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi.

Jamoatchilik monitoringi bir necha usullardan foydalanib o'tkaziladi.

Bunday usullar jumlasiga statistik tahlil, byudjet tahlili, huquqiy tahlil va so'rovnomalarni kiritish mumkin.

**Jamoatchilik monitoringi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

*Jamoatchilik monitoringi bir necha usullardan foydalanib o'tkaziladi. Bunday usullar jumlasiga statistik tahlil, byudjet tahlili, huquqiy tahlil va so'rovnomalarni kiritish mumkin.*

1. Jamoatchilik monitoringini amalga oshirish sohasi aniqlanadi.

2. Jamoatchilik monitoringi o'tkaziladigan soha bo'yicha yetarlicha tushuncha va tajribaga ega fuqarolar orasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh shakllantiriladi.

3. Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi guruh tomonidan amalga oshirilgan ishlarning holati o'r ganilib, mavjud muammo va kamchiliklar aniqlanadi.

4. O'r ganishlar davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. Tegishli tashkilotlarga o'r ganishlar jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni hal etishga alohida e'tibor qaratish tavsiya etilgan ma'lumotnomasi (bayonna, xulosa) yuboriladi.

Ijtimoiy munosabatlar tadrijini tashxis qilish va bashorat qilish vazifasini bajaruvchi jamoatchilik monitoringi, ayni paytda, mazkur jarayonlarni boshqarish bo'yicha tezkor axborot olish imkonini ham beradi.

Jamoatchilik monitoringi nodavlat notijorat tashkilotlar va umuman, fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos yoki mos emasligini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Jamoatchilik monitoringi davlat hokimiyati organlari faoliyatiga baho berish bilan birga zarur bo'lgan hollarda ularni korreksiya qilish imkonini ham yaratadi.

Jamoatchilik monitoringi tizimlilik va xolislik, qonuniylik va ochiqlik hamda olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi tamoyillariga asoslanib o'tkaziladi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o'tkazishning maqsadi mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bunday tavsiyalar monitoring natijalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish asosida qabul qilinadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o'tkazish texnologiyasi o'zaro bog'liq va muayyan ketma-ketlikda tashkil etilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ularni amalga oshirish manfaatdor shaxs va tashkilotlarga, birinchi navbatda, nodavlat notijorat tashkilotlarga

ijtimoiy ahamiyatga molik mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunday ishtirok aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

### **Jamoatchilik ekspertizasi [8].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Jamoatchilik ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o‘rganish hamda baholashdan iboratdir. Jamoatchilik ekspertizasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘tkazishi mumkin. Jamoatchilik ekspertizasining tashkilotchisi tegishli sohada zarur bilim va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni jamoatchilik asosida jalb etishi ham mumkin”.

“Ekspertiza” tushunchasi muayyan masalani mutaxassislar tomonidan o‘rganish va u haqda xulosalar berishni anglatadi. Ijtimoiy sohada shunday masala va muammolar mavjudki, ularni o‘rganish va tadqiq qilish muayyan qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Bu qiyinchiliklar o‘rganilayotgan masala va muammoning murakkabligi tufayli vujudga keladi. Shuning uchun ham jamiyatda ekspertiza qilishga katta ehtiyoj mayjud.

Ekspertiza qilish, ko‘pincha, biror-bir hujjat, loyiha, bajarilgan ish natijalari haqida xulosa berishni anglatadi. Ijtimoiy ekspertiza mutaxassis (ekspert)lar tomonidan obyektning holatini tashxislash, u haqidagi axborotning to‘g‘riliqi va ishonchlilagini aniqlash, uning keyingi tadrijini, shuningdek, boshqa obyektlarga ta’sirini prognozlash hamda qaror qabul qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishni qamrab oladigan faoliyat va tadqiqotdir.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati bo‘yicha tayyorlangan normativ hujjatlar loyihasi bo‘yicha o‘tkaziladigan jamoatchilik ekspertizasining maqsadi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning amaldagi qonun normalariga mosligini, shuningdek, mazkur qarorlar fuqarolar manfaatlariga hamda jamoatchilik fikriga qay darajada mosligini aniqlashdan iborat.

Jamoatchilik ekspertizasi murakkab jarayon bo‘lganligi tufayli, uning obyektivligi va xolisligiga erishish uchun tajribali mutaxassis ekspertlarni jalb etishdan iborat.

**“Ekspertiza”  
tushunchasi  
muayyan masalani  
mutaxassislar  
tomonidan  
o‘rganish va u  
haqda xulosalar  
berishni anglatadi.  
Ijtimoiy sohada  
shunday masala  
va muammolar  
mavjudki, ularni  
o‘rganish va tadqiq  
qilish muayyan  
qiyinchiliklar bilan  
bog‘liq.**

### **Jamoatchilik fikrini o‘rganish [8].**

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Jamoatchilik fikrini o‘rganish turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to‘g‘risidagi, davlat organlarining, ular mansabdar shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta‘minlashga doir faoliyati to‘g‘risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig‘ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir.

Jamoatchilik fikrini o‘rganishni nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq o‘tkazishi mumkin”.

**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish [8] muhim shakllardan biri hisoblanadi.**

Fuqarolar yig‘ini:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig‘inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini;
- ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta‘lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini;
- tegishincha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini;
- tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

Demak, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan o‘tkaziladigan jamoatchilik nazoratining asosiy quroli – bu qonun.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Namangan va Jizzax viloyatlarida mahalliy Kengashlar o‘z vakolati doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha tegishli hududlarda joylashgan korxona, muassasa, tashkilot rahbarlarining hisobotlarini eshitish holati o‘rganish natijalariga ko‘ra, **337 nafar (67,4%)** respondentlar mahalliy Kengashlar o‘z vakolati doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha tegishli hududlarda joylashgan korxona, muassasa, tashkilot rahbarlarining hisobotlari eshitilishini bildirganlar. Biroq Navoiy viloyatidagi respondentlarining **103 nafari (20,6%)**, Jizzax viloyatidagi respondentlarning **25 nafari (5%)** hisobotlar qisman eshitilishini bildirishgan (1-jadval).

***Jamoatchilik  
fikrini o‘rganishni  
nodavlat notijorat  
tashkilotlari,  
fuqarolarning  
o‘zini o‘zi  
boshqarish  
organlari va  
ommaviy axborot  
vositalari qonun  
hujjatlariga  
muvofig o‘tkazishi  
mumkin”.***

1-jadval

Hudud nomi	Respondentlar soni va foiz hisobida	Ha, hisobotlari eshitiladi	Ha, qisman hisobotlari eshitiladi	Hisobotlar eshitilmaydi	Javob berishga qiynalaman	Jami
Navoiy viloyati	soni	50	50	4	4	108
	ulushi	10,0%	10,0%	0,8%	0,8%	21,6%
Namangan viloyati	soni	99	12	16	0	127
	ulushi	19,8%	2,4%	3,2%	0,0%	25,4%
Jizzax viloyati	soni	94	25	24	8	151
	ulushi	18,8%	5,0%	4,8%	1,6%	30,2%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	soni	94	16	4	0	114
	ulushi	18,8%	3,2%	0,8%	0,0%	22,8%
Jami	soni	337	103	48	12	500
	ulushi	67,4%	20,6%	9,6%	2,4%	100,0%

**1-jadval. Joylarda mahalliy Kengashlar o‘z vakolati doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha tegishli hududlarda joylashgan korxona, muassasa, tashkilotr rahbarlarining hisobotlarini eshitadimi?**

Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga daxldorlik hissining ortishi hamda har bir fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimining o‘z faoliyatni jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonining muhim shartlaridandir. Shu boisdan jamoatchilik nazoratida jarayon emas, natijaga qarab xulosa chiqarish zarur bo‘ladi.

Mahalla instituti tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari va shakllari to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi va uni amaliyotda qo‘llay bilish malakalariga ega bo‘lishini hayotning **o‘zi** taqozo etmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, jamoatchilik nazorati shakllari va tamoyillari asosida faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

- davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari tomonidan qonunlarga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga riosa etilishi va ularning ta’milnishi ahvoli to‘g‘risida fuqarolarni xabardor qilish;

- davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari tomonidan qonunga riosa qilmaslik holatlarini aniqlash va keng jamoatchilikni

xabardor qilish, ularni jamoatchilik yordamida bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiyadolat prinsipini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasida fuqarolik jamiyatni institutlari va davlat organlarining hamkorligini ta'minlash.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқарии органлари тўғрисида”ги Қонуни, 16-модда. (16-модда биринчи қисмининг иккинчи хатбоишиси Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли [Қонуни](#) таҳририда - Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)
2. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сон Қонуни 6-модда (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)
3. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сон Қонуни 7-модда. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)/
4. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майдаги “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаoliyatining очиқлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-369-сонли Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон).
5. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сон Қонуни 8-модда. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)
6. Ўша манба. 9-модда.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сон Қонуни 10-модда. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон).
8. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сон Қонуни 11-модда. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон).

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.